

## O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLLANTIRISH

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Jumayev Hojimuhammad**

[jumayevhojimuhammad0114@gmail.com](mailto:jumayevhojimuhammad0114@gmail.com)

[Tel: +998940650114](tel:+998940650114)

**Annotatsiya:** Maqolada moliya bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'ri va ahamiyati, uning istiqboldagi asosiy yo'nalishlari keng yoritib berilgan. Moliya bozorini rivojlantirish sharoitida O'zbekiston fond birjasi faoliyatini takomillashtirish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** moliya bozori, moliya instrumentlari, fond birjasi, qimmatli qog'ozlar bozori, real investitsiya, bozor kapitalizatsiyasi, valyuta bozori, moliyaviy resurslar, moliyaviy bozorlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslardan uzluksiz foydalanish, ulardan samarali investitsiyalash va maqsadga muvofiq yo'naltirish muhim ahamiyatga ega va bu moliya bozori orqali ta'minlanadi. Moliya bozori aholi va xo'jalik subyektlarining vaqtincha bo'sh mablag'larini yig'ish va ularni samarali joylashtirishda pul mablag'larini egalari va ulardan foydalanuvchilar (investorlar) o'rtasida vositachilik qiladi. Umuman olganda, moliya bozori tushunchasi tovarlarning boshqa turlari (masalan: neft, oltin va boshqa turdagi xom ashyolar, xizmatlar, ko'chmas mulk va boshqalar) bozorlar tushunchasi o'rtasida o'xshashlikni sezish mumkin. Lekin har qanday bozor u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning tovari xususiyatlari bilan bog'liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko'rilayotgan bozor turlaridagi tovarlarning xususiyati, kelib chiqishi va ularning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo'lsak, albatta sezilarli farq namoyon bo'ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan tovarlar muomalasi uchun ularga hos bo'lgan bozor zarur, qimmatli qog'ozlar uchun esa faqat fond bozori, pul (valuta) va kreditlar uchun — mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori bo'lishi kerak va h.k. Bunda real tovar, moliya instrumentlaridan farqli, bir yoki bir necha marotaba oldi-sotti bo'ladi, qimmatli qog'ozlar esa cheklanmagan miqdorda oldi-sotti bo'lishi mumkin. Umuman olganda tovar kimdir tomonidan ishlab chiqariladi, moliyaviy instrument (jumladan, qimmatli qog'oz) esa muomalaga chiqariladi. Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo asosiy va alohida qismidir. Lekin moliya bozorining asosi real tovarlar bozoridir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo'lishi bilan bitga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta'minlaydi va muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning obyektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

Tovar iqtisodiyotining asosiy maqsadlaridan biri foyda olish bolganligi uchun undagi harqanday faoliyat kapitalni orttirish sohasi bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan har qanday bozor - bir vaqtning o'zida kapitallarga qo'yilmalar uchun mo'ljallangan bozor hamdir. Pul mablag'lari tovarning har qanday turiga (jumladan, qimmatli qog'ozlarga) qo'yilishi (yo'naltirilishi) mumkin. Buning barcha holatlarida yo'naltirilgan pul mablag'lari vaqt mobaynida o'z orttirmasiga (yoki zarariga) ega bo'lishi, ya'ni foyda yoki zarar keltirishi mumkin. Ammo bu holatlarning barchasida boshlang'ich pul mablag'ini jamg'arish yoki topish jarayoni mavjud emas, har qanday kapitalga pul mablag'ini qo'yish uchun boshlang'ich jamg'armaga ega bo'lish yoki topish imkoniyatini bermaydi. Boshqa sohalardan farqli ravishda, moliya bozori ushbu imkoniyatni beruvchi, uning uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratuvchi muhit, alohida iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, institutlari (qatnashchilari) va ularning moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq munosabatlari majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi tizimdir.

Moliya bozorining tarkibi quyidagi komponentlar bilan belgilanadi. Bu pul, kapital, qimmatli qog'ozlar (aktsiya), naqd pul (pul, pul va boshqa shakllarda pul). Bundan tashqari, tijorat banklaridagi oltin va omonatlar (omonatlar) uchun bozor mavjud. Moliya bozori - turli moliyaviy vositalar uchun norasmiy yoki tashkiliy savdo tizimi. Ushbu bozor tizimida pul almashuvi, kreditlash va kapitalni jalb qilish jarayoni mavjud. Ushbu bozordagi asosiy rol egalari tomonidan vaqtinchalik qarzdorlarga pul oqimlarini yo'naltirish bilan shug'ullanadigan moliyaviy institutlarga beriladi. Tovarlarning roli o'z-o'zidan, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladi.

Pul bozori valyuta, buxgalteriya, banklararo bozorlardan iborat. Moliyaviy munosabatlarning ushbu komponentining o'ziga xos xususiyati unga qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan) kreditlarni jalb qilishdir. Pul bozori kredit kapitalining o'ziga xos sohasi bo'lib, bu sarmoyalarni bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga kreditlash bilan tavsiflanadi. Ular asosan noaniq va ishchi kapitalni saqlash uchun ishlatiladi. Ushbu bozorda pul mablag'lari noma'lum shaklda paydo bo'ladi, unda uning kelib chiqishi izlari yo'q qilinadi. Ayirboshlash bozori global bozordagi moliyaviy bozorlar ta'sirini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uning yordami bilan xaridorlar va valyutalarni sotuvchilar o'rtasidagi munosabatlar o'rnatiladi. Ushbu munosabatlardagi mahsulotlar xorijiy valyutada ko'rsatilgan moliyaviy talablardir. Banklar, eksportchilar, investorlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va boshqalar ishtirok etadi. Moliya bozorining tuzilishi ushbu komponentni alohida rol o'ynaydi.

Buxgalteriya bozori - qisqa muddatli kreditlarni naqd pul mablag'larini kredit tashkilotlari o'rtasida qimmatli qog'ozlarni bir yilgacha muddatga sotib olish va sotish yo'li bilan qayta tarqatadi. Bozor banklarni hisobga olish va qayta hisoblash operatsiyalariga asoslangan.

Banklararo bozor - banklar o'rtasida qisqa muddatli depozitlar ko'rinishida joylashtiriladigan naqd pul mablag'larining naqd pul mablag'larini jalb qilish munosabatlari.

Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalariga investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinyapti. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi orqali ularning korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'ini oshirish masalasi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, kreditlash, jamg'arma-depozit, pul o'tkazmalari, hisob-kassa amaliyoti, sug'urtalash, inkassatsiya, moliyaviy kafolatlash va valyuta oldi-sotdisi kabi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yurtimizda lozim darajada, yoinki, xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo'llaniladigan birja, lizing, reytinglash, qayta sug'urtalash, brokerlik, mulkni baholash, moliyaviy maslahat berish, moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish kabi xizmatlarni ko'rsatish kutilgan natijalarni bermayapti. Moliya bozori — oldi-sotdi obyekt pul yoki pulga tenglashtirilgan qog'oz bilan bog'liq bo'lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag'larini jamg'arganlardan qarzga oluvchilarga o'tishi ta'minlanadi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini mablag'larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi.

Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalariga investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinyapti. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi orqali ularning korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'ini oshirish masalasi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, kreditlash, jamg'arma-depozit, pul o'tkazmalari, hisob-kassa amaliyoti, sug'urtalash, inkassatsiya, moliyaviy kafolatlash va valyuta oldi-sotdisi kabi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yurtimizda lozim darajada, yoinki, xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo'llaniladigan birja, lizing, reytinglash, qayta sug'urtalash, brokerlik, mulkni baholash, moliyaviy maslahat berish, moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish kabi xizmatlarni ko'rsatish kutilgan natijalarni bermayapti. Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, Moliya Bozorini turkumlashning bir necha usullari mavjud. Qaytarish tamoyili bo'yicha moliya bozori 2 ga ajraladi: qarz majburiyatlari (iste'molni ko'ndiradigan pul) va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Kapital (mulk) bozorida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olgan holda

kapital bozorini 2 bo‘g‘inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berilishidir.

### Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida moliya bozorini rivojlantirish borasida bir qator salmoqli ishlar olib borilmoqda va o‘ylaymizki bu albatta o‘z samarasini beradi. Yaqin kelajakda ushbu ustuvor yo‘nalishlarning samarasini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 2008-yil 22-iyulda qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 27- sentabr 2006-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qimmatli qogozlar bozori to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi Qarori. 2008-y. Toshkent sh.
4. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/81/-Moliya%20bozori%20va%20birja%20ishi.PDF>

